

**“KRAFTWERK” IJODIDA ZAMONAVIY OMMABOP ELEKTRON MUSIQANING SHAKLLANISHI VA MADANIYATLARARO TA’SIRI****Zokirova Gulnigor**

Musiqashunoslik bo’limi 3-kurs talabasi

**Tursunova R.A.**Ilmiy rahbar: “Musiq tarixi va tanqidi” kafedrasida dotsenti,  
san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).<https://doi.org/10.5281/zenodo.19440385>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmida elektron musiqaning shakllanish bosqichlari hamda uning akademik tajriba doirasidan ommaviy madaniyat sahnasiga ko‘chish jarayoni tadqiq etiladi. Asosiy e’tibor Germaniyaning “Kraftwerk” guruhi ijodiga qaratilgan bo‘lib, jamoaning texnologiya, san’at va falsafani uyg‘unlashtirgan innovatsion konseptual yondashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, guruh yaratgan musiqiy asarlarning bugungi kunda keng tarqalgan xip-xop, texno, xaus va elektro kabi janrlarga ko‘rsatgan madaniyatlararo ta’siri hamda saund-dizayn sohasidagi o‘rni yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** elektron musiqa, “Kraftwerk”, madaniyatlararo ta’sir, sintezator, saund-dizayn, avangard, pop-madaniyat, inson-mashina konsepsiyasi.

XX asrning ikkinchi yarmi musiqa tarixida o‘ziga xos tub burilishlar davri sifatida muhrlandi. Bu davrda rok, jaz va akademik avangard oqimlari bilan parallel ravishda mutlaqo yangi estetik yo‘nalish bo‘lmish elektron musiqa shakllana boshladi. Elektron musiqaning dastlabki evolyutsiyasi ko‘plab markazlarda parallel ravishda yuz berib, turli mamlakat va madaniyat vakillari texnologiyani ijod vositasiga aylantirish yo‘lida qator izlanishlar olib bordilar.

Akademik studiyalarda magnit lentalar, dastlabki sintezatorlar va modulli qurilmalar vositasida olib borilgan tajribalar natijasida mutlaqo yangi tovush makoni yaratildi va elektron musiqa mustaqil badiiy yo‘nalishga aylanib bordi. Aynan ana shu o‘tish jarayonining eng markaziy va ta’sirli kuchi 1970-yilda Germaniyaning Dyusseldorf shahrida tashkil topgan “Kraftwerk” guruhi bo‘ldi. Jamoa nafaqat musiqada yangi uslubni ixtiro qildi, balki musiqani tushunish falsafasini ham o‘zgartirib, an’anaviy cholg‘u asboblari o‘rniga texnologiyani ijodning asosiy vositasiga aylantirdi.

Elektron musiqaning dastlabki qadamlari ilmiy-tadqiqot tusiga ega edi. Bu boradagi ilk konseptual burilishlarni amalga oshirgan nemis bastakori Karlheinz Stockhausen elektron studiya tajribalarini rivojlantirib, tovushni ilmiy asosda tashkil qilish g‘oyasini ilgari surdi.

Uning izlanishlari elektron musiqaning akademik yo‘nalishini shakllantirishda poydevor vazifasini o‘tadi. Parallel ravishda, Fransiyada Pierre Schaeffer “musique concrète” (konkret musiqa) yo‘nalishiga asos solib, kundalik hayot tovushlarini yozib olish hamda montaj qilish orqali kompozitsiyalar yaratdi va tovushning o‘zi san’at materialini ekanligini isbotladi.

Vaqt o‘tishi bilan turli mamlakatlarda elektron ohanglarni ommalashtirishga qaratilgan harakatlar boshlandi. Xususan, 1970-yillarda fransuz bastakori Jean-Michel Jarre yirik ochiq maydon konsertlari orqali elektron musiqani keng auditoriyaga olib chiqdi. Yunon bastakori Vangelis sintezatorda simfonik va kinematografik ohanglar yaratib, bu musiqani kino industriyasiga olib kirdi. Yaponiyada esa “Yellow Magic Orchestra” guruhi sharqona melodik tafakkurni g‘arb elektron ritmlari bilan uyg‘unlashtirib, texnopopning rivojiga hissa qo‘shdi.

Buyuk Britaniyada Brian Eno ambient musiqasining nazariy asoslarini yaratib, “atrof-muhit musiqasi”ni estetik konsepsiya darajasiga ko’tardi.

Shunga qaramay, mazkur ulkan izlanishlar hali aniq identitetga ega bo’lgan to’laqonli elektron “pop modeli”ni yuzaga keltirmagan bo’lib, akademik tajriba va ommaviy musiqa o’rtasida muayyan masofa saqlanib qolayotgan edi. Elektron musiqani turli mamlakatlardagi tajribalar sahnasidan ommaviy madaniyat sahnasiga, intellektual tajribadan zamonaviy madaniyat ramziga aylantirgan asosiy kuch sifatida “Kraftwerk” maydonga chiqdi.

Guruh asoschilari Ralf Hütter va Florian Schneider o’z faoliyatlarini Dyusseldorf muhitida akademik va eksperimental yo’nalishlarda boshlagan edilar. 1960-yillar oxirida Yevropada avangard san’at va industrial estetika kuchaygan bir paytda, ular tayyor kompozitsiyalardan ko’ra, yaratish va transformatsiya tizimiga — ya’ni tovush ustidagi izlanish jarayonining o’ziga e’tibor qaratdilar. Ularning “Kling Klang” shaxsiy studiyasi an’anaviy yozuv xonasi emas, balki shahar shovqinlari va mexanik ritmlar qayta ishlanib, yangi industrial ohang yaratiladigan haqiqiy ovoz laboratoriyasi edi. “Kraftwerk” nomi nemis tilida “elektrostansiya” degan ma’noni anglatishi ham ramziy bo’lib, musiqa texnologiya orqali ishlab chiqariladigan, boshqariladigan energiya degan g’oyani ifodalagan. Ular elektron asboblarni nafaqat ovoz manbai, balki jamiyat timsoli sifatida ko’rib, avtomobil, radio, kompyuter kabi vositalarni asarlarining ritmi va falsafasiga aylantirdilar.

Ular Stockhausen maktabining ilmiy-intellektual yondashuvini saqlab qolgan holda, uni aniq ritm, minimal melodika va texnologik estetika bilan mohirona uyg’unlashtirdilar.

Guruhning har bir albomi alohida bir konsepsiyani aks ettiradi:

**“Autobahn” (1974):** Ushbu albom elektron musiqaning ommaviy muvaffaqiyat qozonishi mumkinligini isbotlagan haqiqiy burilish nuqtasi bo’ldi. Albomdagi 20 daqiqalik bosh asar Germaniya avtomagistralarida harakatlanayotgan avtomobilning ovozli manzarasi edi.

Asarda past, barqaror dvigatel tovushlaridan tortib, yo’lning uzluksiz davom etishini ifodalovchi takrorlanuvchi sintezator naqshlari va vokoder orqali mexanik tus olgan inson ovozi (sun’iy eshitiladigan ovoz) qo’llanildi. Minimalizm tamoyillariga qurilgan bir maromdagi ritm gipnotik ta’sir uyg’otib, sintezatorning katta sahnaga chiqishiga yo’l ochdi va asar zamonaviylik timsoliga aylandi.

**“Radio-Aktivität” (1975):** Mazkur albom musiqani axborot va ma’no tashuvchi strukturaga aylantirdi. Albom nomi radio to’lqinlari va yadro energiyasiga ishora qiladi, unda Geiger hisoblagichi shovqini va Morze signallari orqali atom energiyasining yashirin xavfi va noaniq kayfiyat konseptual tarzda ifodalangan. Akustik asboblarni butunlay chetga surib, sof elektron muhit hosil qilgan bu albom saund-dizaynni mustaqil san’at kategoriyasi darajasida namoyon etdi hamda musiqani ijtimoiy-texnologik mavzularni yorituvchi platformaga aylantirdi.

**“The Man-Machine” (1978):** Inson va texnologiyaning uyg’unligi masalasi ushbu albomda o’zining cho’qqisiga chiqdi. Albom vizual jihatdan 1920-yillardagi sovet konstruktivizmidan (El Lisitskiy, Aleksandr Rodchenko, Vladimir Mayakovskiy estetikasi) ilhomlanib yaratildi, musiqachilarning geometrik tartibda turishi jamoaviy va texnologik intizomni ramziy ifodaladi. “The Robots” taronasida rus tilida “Ya tvoy sluga, ya tvoy rabotnik” deya kuylanishi insonning texnologik tizim ichida robotlashuvi yoki mashinaning insonga xizmat qilishiga oid falsafiy muammolarni ko’tardi. Konsertlarda musiqachilar o’rniga robotmaneknlarning sahnaga chiqishi va san’atkorlarning emotsiyalardan xoli statik ko’rinishi industriallashgan jamiyat monotonligini ko’rsatib, “inson-mashina” (cyborg) g’oyasini ilgari surdi.

“**Computer World**” (1981): Shaxsiy kompyuterlar va internet kundalik hayotga kirib kelmagan bir davrda, jamoa jamiyatning to‘liq raqamlashishini oldindan bashorat qildi. Albom ma’lumotlar bazasi, raqamli identifikatsiya va global muloqot muammolarini o‘rtaga tashlab, kompyuterni faqat hisoblash vositasi emas, balki ijod va muloqot quroli ekanligini “Computer Love” va “Pocket Calculator” asarlari orqali asoslab berdi. Bu asar jamiyatni yangi raqamli reallikda yashashga tayyorlashdek ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

“Kraftwerk” ijodining eng katta xizmatlaridan biri — musiqiy madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik yaratganligidadir. “Computer World” hamda “Trans-Europe Express” (1977) albomlaridagi o‘ta murakkab va jozibali ritmlar shunchaki fon emas, kompozitsiyaning asosiy qahramoniga aylangan edi. Ushbu musiqiy strukturalar okean ortiga — AQSHning qora tanli yoshlari yashaydigan hududlariga (Bronks, Detroyt) yetib bordi. 1982-yilda xip-xop yo‘nalishining kashshoflaridan biri Afrika Bambaataa o‘zining «Planet Rock» taronasida aynan "Kraftwerk" ritmlaridan foydalandi. Bu tarixiy voqea madaniyatlararo muloqotning eng yorqin namunasi bo‘lib, nemis elektronikasining matematik aniqligi AQSHning ko‘cha madaniyati (funk va breakbeat) bilan birlashishiga, natijada esa Hip-hop, Elektro va keyinchalik Texno janrlarining tug‘ilishiga kuchli turtki berdi.

1990-yillarga kelib, jamoa o‘z arxivlarini zamonaviylashtirishga kirishdi. 1991-yilda chiqarilgan “The Mix” albomi guruhning “Kling Klang” studiyasidagi barcha analog yozuvlarini raqamli formatga o‘tkazdi va asarlariga (“The Robots”, “Computer Love” kabi) yangicha ritmik tuzilish hamda toza ovoz bag‘ishladi. Ushbu albomdagi “Radioactivity” treki Chernobil AES fojiasiga ishora qiluvchi so‘zlar bilan boyitilib, jamoaning ijtimoiy mas’uliyatini namoyish qildi.

2004-2005 yillarda dunyo bo‘ylab bo‘lib o‘tgan jonli konsertlarni o‘zida jamlagan “Minimum-Maximum” albomi esa (Moskva, London, Tokio kabi shaharlarda) elektron musiqaning konsert formatida ham yuksak badiiy qiymat va “tirik” energiyaga ega ekanini isbotladi. Garchi 2020-yilda asoschilardan biri Florian Schneider vafot etgan bo‘lsa-da, Ralf Hütter yetakchiligida guruh jonli konsertlar va tarixiy merosni saqlash yo‘lidagi faoliyatini davom ettirmoqda.

XX asr musiqiy taraqqiyoti sarhisob qilinganda, ko‘plab mamlakatlardagi tajribalar elektron san‘at uchun zamin yaratgan bo‘lsa-da, aynan “Kraftwerk” bu harakatni yaxlit uslub, qat’iy vizual konsepsiya va global ta’sir darajasiga olib chiqdi. Jamoaning zamonaviy jahon musiqasiga ko‘rsatgan hissasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: sintezator qo‘shimcha effekt emas, balki orkestr o‘rnini bosuvchi asosiy musiqa asbobiga aylantirildi; saund-dizayn (tovush ustida ishlash) mustaqil ijodiy yo‘nalish darajasida shakllantirildi; texnologiya inson ijodini cheklemasdan, aksincha uni kengaytirishi ijodiy isbotlandi; guruh ritmlari va vokoder texnikasi Hip-hop, Techno, Synth-pop, House hamda Electro janrlarining shakllanishiga asosiy zamin bo‘ldi.

Bugungi kunda striming platformalari, virtual (VR) konsertlar va to‘liq elektron prodakshn jarayonlariga asoslangan zamonaviy raqamli musiqa industriyasi aslida “Kraftwerk” ixtiro qilgan konseptual makonning mantiqiy davomi hisoblanadi. Ular ilgari surgan “Kling Klang” falsafasi hamda vizual estetika (robotik kostyumlar, simmetrik sahna dizayni) bugungi sahna performans san‘ati va raqamli madaniyat uchun hamon bitmas-tuganmas ilhom manbai bo‘lib qolmoqda. Xulosa qilib aytganda, elektron musiqani sof tajribadan ommabop va konseptual san‘at shakliga olib chiqqan “Kraftwerk” shunchaki musiqiy guruh emas, balki texnologiya, san‘at va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligini o‘zida aks ettirgan, futuristik musiqaning tamal toshini qo‘ygan noyob fenomendir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Брюстер Б., Броутон Ф. История диджеев / Last Night a DJ Saved My Life. – Москва: Белое Яблоко, 2022.
2. Buckley, D. Kraftwerk: Publikation. – London: Omnibus Press, 2012.
3. Bussy, P. Kraftwerk: Man, Machine and Music. – London: SAF Publishing Ltd, 2004.
4. Flür, W. Kraftwerk: I Was a Robot. – London: Sanctuary, 2005.